

## **NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INOVATSION METODLAR .**

Islomova Ozoda Sayfiddinovna, Jizzax  
davlat pedagogika instituti “Maxsus  
pedagogika” kafedrasida o'qituvchisi

[islomovaozoda1990@gmail.com](mailto:islomovaozoda1990@gmail.com)

Ismoilova Gulnora, Jizzax davlat  
pedagogika instituti Defektologiya  
yo'nalishi III kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalardagi nutq nuqsonlariga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy va pedagogik ishga katta e'tibor qaratilgan . Nutq kamchiligini erta aniqlash ,korreksion ta'lim-tarbiyani tashkil qilish va ta'lim -tarbiyaning uslublari masalasini hal qilish bo'yicha ma'lum miqdorda yutuqlarga erishish usullari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** bilish , logopedik o'yin, Nutqiy fikrlash , tovush, Nutqi to'liq rivojlanmaganlik, mnestika.

Dunyo miqyosida ham statistik ma'lumotga ko'ra, nutq nuqsonlarining soni ko'payib bormoqda, shuning uchun bolalar va o'smirlarda nutq kamchiliklarini oldini olish dolzarb muammo bo'lib qolgan.

Bizning mamlakatimizda nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy va pedagogik ishga katta e'tibor qaratilmoqda. Nutq kamchiligini erta aniqlash ,korreksion ta'lim-tarbiyani tashkil qilish va ta'lim -tarbiyaning uslublari masalasini hal qilish bo'yicha ma'lum miqdorda yutuqlarga erishilgan.

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni

ta'minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yangi ta'lim to'g'risidagi qonunham qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Bolada nutqni tushunish, uni o'rab turgan predmetlar va kattalar talaffuz qilgan so'zlarning o'rtasidagi aloqani o'rnatish yo'li orqali rivojlanadi. Bola istagini mimikasi yoki jesti orqali bilib olishga urinadigan ota—onalarga ularning bunday hatti-harakati noto'g'ri ekanligini tushuntirish zarur. Chunki bunday jarayonda bolada ovoz reaksiyalari, tovushlar va so'zlar talaffuziga ehtiyoj sezilmaydi.

Nutq kamchiligiga ega bolalarni tarbiyalash jarayonida ota-onalar va pedagoglar doimo o'z xulq-atvorni va o'zining mavqeyini anglash lozim. O'zaro rag'batlantirish, o'zaro hurmat, tartibni saqlash oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro ta'sir nutq kamchiligiga ega bolalarni psixogen reaktiv holatlar profilaktikasida jiddiy ro'l o'ynaydi.

Nutqiy fikrlash so'zli ma'nolar, tushunchalar va mantiqiy jarayonlar asosida amalga oshiriladi. A.H. Leontev (1975) ta'kidlaydiki, ma'nolarda predmet dunyosi, xossalari, aloqalari, munosabatlari mavjudligining ideal shaklining til materiyasida qayta hosil qilinishi va mujassamlanishi berilgan, mavhum ma'nolar va tizimini shakllanishi esa aqliy faoliyatni tashkil etadi. L.S. Vigotskiy bu ma'lumotni tafakkur va nutq birligi deb aytgan. Tushuncha aql-idrok jarayonida vujudga keladi.

Nutqiy fikrlash faoliyat mexanizmi sifatidagi bunday jarayonlar xususiyatiga nutqiy fikrlashning muayyan turi-umumlashgan yoki aniq xodisaviy turi to'g'ri keladi. So'z ma'nosi tizimi va nutq patologiyasi tizimlarining mana shunday o'zaro

shartlangan o'zgarishi, me'yorlar kabi tafakkur va nutq birligini asosli ravishda aks ettiradi.

Ma'lum bo'lishicha, nutqi rivojlanmagan bolalarning o'zi turgan joyini aniqlash xususiyatini o'rganishda obyektни joylashgan joyini aniqlashda ham bilish faoliyatida turli darajada buzilishlar uchraydi. Biz dastlab bilish faoliyatidagi buzilishlar ustida korreksion ishlar olib boramiz. Ushbu korreksion ish bilan birgalikda tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf qilsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolalarda nutq patologiyasining bilish doirasining rivojlanishini o'rganuvchi tadqiqotchilar orasida L.S.Svetkaova, T.M.Pirsxalayshvili, E.M.Mastyukova, N.A.Chevelyeva, G.S.Syergevvalar idrokning turli ko'rinishlarini tadqiq qilganlar; G.S.Gumennaya xotira xususiyatlarini o'rgangan; O.N.Usanova, Yu.F.Gargusha, T.A.Fotekova diqqat-e'tiborni tadqiq qilishgan; I.T.Vlasenko, G.V.Guroves, L.R.Davidovich, L.A.Zaysyeva, V.A.Kovshikov, Yu.A.Elkin, O.N.Usanova fikrlash turlarining o'ziga xosligini o'rgangan; V.P.Gluxov tasaffurni tadqiq qilgan. Bola hayotining birinchi uch yilida nutq faoliyatining rivojlanishi ahamiyatli hisoblanadi. Ma'lumki, gugulashning paydo bo'lishi kelgusida bolaning nutqi va psixikasi me'yorda rivojlanishini kafolatlamaydi. Gugulash me'yorda rivojlanayotgan boladagina emas, balki ko'pchilik rivojlanishida og'ishlari bor (karlarda, intellektual rivojlanmagan bolalarda) bolalarda ham kuzatiladi. Alaliyali bolalarda (hayotining ikkinchi yilida) shakllanishning kechroq muddatlarida g'udurlab gapirishning yo'qligi yoki juda qashshoq ko'rinishdaligi xarakterli. Rinolaliyali, dizartriyali bolalarda g'udurlashning sifati o'ziga xos tezlikda rivojlanishi belgilanadi. (O.N.Usanova, O.A.Slinko, 1987).

Qadimgi Rim pedagogi M.F.Kventlian o'zini "notiq tarbiyalovchi" kishi deb hisoblanganligi uchun ham bolaning nutqini o'zgarishiga, nutqda uchraydigan nuqsonlarga e'tibor berdi. U bolalarning nutqi yoshlik chog'idanoq sof bo'lishi uchun kurashdi va shu sababli bolani uyda tarbiyalamoq uchun olinadigan enaga va murabbiylarning talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak, deb uqtiradi. Shuningdek, Kventlian musiqiy ta'lim berish masalasiga ham bolaning nutqini yaxshilash

nuqtayi nazaridan qaradi. Musiqa va tilni o'rganish talaffuzning yaxshilashiga yordam beradi, nutqning uslubini yaxshilaydi, uni ifodali nutqqa aylantiradi, deb aytadi. Nutqiy fikrlash so'zli ma'nolar, tushunchalar va mantiqiy jarayonlar asosida amalga oshiriladi. A.H. Leontev (1975) ta'kidlaydiki, ma'nolarda predmet dunyosi, xossalari, aloqalari, munosabatlari mavjudligining ideal shaklining til materiyasida qayta hosil qilinishi va mujassamlanishi berilgan, mavhum ma'nolar va ma'n tizimini shakllanishi esa ichi aqliy faoliyatni tashkil etadi. L.S. Vigotskiy bu ma'lumotni tafakkur va nutq birligi deb aytgan. Tushuncha aql-idrok jarayonida vujudga keladi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda tovushlarni ajratishda qiyinchiliklar uchraydi, bu esa nutqning tovush tomonini rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bular yana ikkilamchi nuqson sifatida tovushlarni talaffuz qilishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday bolalar nutqidagi kamchiliklar, artikulyatsion apparat kamchiliklari asosida tovush talaffuz funksiyasi to'liq bajarilmasligi natijasida fonematik qabul qilishga birinchi o'rinda ta'sir qilib, uning shakllanishiga yo'l qo'ymaydi.

Qanchalik tovushlarni talaffuz qilishda tayanch kam bo'lsa, shunchalik fonetik namunalarni shakllanishiga sharoit bo'ladi. Fonematik eshitishning shakllanishi to'g'ri bolaning nutq tomonlarini hammasiga ta'sir qiladi, bolaning umumiy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi.

NTR li bolalarda diqqat-e'tibor xatolari butun ish davomida qatnashadi va doimo mustaqil e'tibor qilinmaydi va yo'qotilmaydi. Xatolar fe'li va ularning o'z vaqtida bo'linishi me'yordan sifatli farqlanadi. Nutqi rivojlanmagan bolalarning erkin diqqat-e'tiborning xususiyatlari chalg'itish xarakterida namoyon bo'ladi. Nutqi sog' bolalar uchun "tajriba o'tkazuvchiga" faoliyati jarayonida chalg'itish intilish xarakterli (bolalar tajriba o'tkazuvchiga qarab, u yoki bu vazifani to'g'ri yoki noto'g'ri bajarishganini uning ta'siridan aniqlashga xarakat qilishadi), nutqida ko'rinishlari bo'ladi: "derazaga qaradi (atrofga)", "vaziga bilan bog'liq bo'lmagan xarakatlarni amalga oshiradi". Nutqi og'ir buzilgan bolalarda

erkin diqqat -e'tiborining past darajadaliği ularning shakllanganligiga yoki faoliyat tuzilishining buzilishiga olib keladi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda mnestik funksiyalarni (xotirani) tadqiq qilishda ma'lum bo'lishicha, ularning ko'rish xotirasi me'yordan hech qanday farq qilmas ekan. Dizartriyali bolalarda geometrik figuralarni eslab qolish ehtimoli istisno qilinadi. Bu bolalarda shu sohadagi past natijalar ifodalangan idrokning buzilish shakllari, fazoviy tasavvurning bo'shligi bilan bog'liq. A.R.Luriya va boshqalarning «10 ta so'z» metodikasi yordamida oldindan eslab qolishni tadqiq qilishda, nutqida og'ir buzilishlar bo'lgan bolalarda qator xususiyatlar uchraydi: ular vazifalar sharoitida sekinroq mo'ljal olishadi va ularning natijalarini solishtirganda me'yordan pastroq bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi natijalar olindi: nutqi rivojlanmagan bolalarda bilimidagi kamchiliklar tafakkur jarayoni va natijalariga va o'z-o'zini tashkil qilishning buzilishiga ko'proq ta'sir qiladi. Ularda atrofdagilar to'g'risida etarli hajmda ma'lumotlar bo'lmaydi, borliqdagi predmetlarning xususiyatlari va funksiyalari haqida, hodisalarning sabab-tyergov aloqalarini o'rnatishda qiyinchiliklar tug'iladi. O'z-o'zini tashkil qilishning buzilishida hissiyotli-iroda va motiv doirasidagi kamchiliklar sabab bo'ladi va psixojismoniy tormozlanish kamdan-kam to'xtab qolishi va vazifaga qiziqishning yo'qligi namoyon bo'ladi.

Nutqi to'liq rivojlanmagani maktabgacha ta'lim guruhlarida uning o'rni juda baland, ko'p bolalarda qo'l barmoqlari harakatining yaqqol og'ishlari kuzatiladi: harakatlari noaniq, muvofiqlashtirilmagan, barmoqlar harakati qiyinlashgan. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning mayda motorikasini rivojlantirishni tizimli o'tkazib, har kuni 3-5 daqiqa vaqt sarflash kerak. Shu maqsadda turli xil o'yin va mashqlar qo'llash mumkin. Qo'l barmoqlarining nozik harakatlanishini takomillashtirish uchun kuldiradigan xalq she'rlarini o'qish davomida barmoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlardan samarali foydalanish mumkin. Bu o'yinlar qulay jo'shqin sharoit yaratadi, barmoqlar mashqini yaxshi ta'minlaydi, eshitish qobiliyatini rivojlantirishga va she'rlar mazmunini tushunishga yordam beradi, nutq ritmini bilib olishga o'rgatadi.

Ta'riflangan o'yinlar bilan bir qatorda qo'l barmoqlarining nozik harakatlari mashg'ulotlarida turli xil nutqsiz yo'llangan mashqlardan foydalanish mumkin.

O'ng qo'l bosh barmog'ining uchi galma-galdan ko'rsatkich, o'rta, nomsiz va jinjiloq barmoqlarini uchiga tegadi ("barmoqchalar salomlashishadi") O'sha mashqni chap qo'l barmoqlari bilan bajariladi.

O'sha harakatlarni bir paytning o'zida chap va o'ng qo'l barmoqlari bilan qilinadi.

O'ng qo'l barmoqlari chap qo'l barmoqlariga tegadi – galma galdan "salomlashishadi": oldin katta barmoq kattasi bilan, undan keyin ko'rsatkich barmoq ko'rsatkich bilan va boshqalar.

O'ng qo'l barmoqlarining hammasi bir vaqtda chap qo'l barmoqlari bilan "salomlashishadi".

O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini tikka tutish va uni aylantirish ("ari").

O'sha harakatlarni chap qo'l barmoqlari bilan qilinadi.

O'sha harakatlarni bir vaqtda ikkala qo'lning ko'rsatkich barmoqlari bilan bajariladi ("arilar").

Stol ustida o'ng qo'lning ko'rsatkich va o'rta barmoqlari "yuguradilar" ("odamcha").

O'sha harakatlarni chap qo'l barmoqlari bilan qilinadi.

O'sha harakatlarni bir vaqtda ikkala qo'lning barmoqlari bilan bajariladi ("bolalar kim o'zarga yuguradilar").

O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i va jinjiloqni tortiladi ("echki").

O'sha harakatlarni chap qo'l barmoqlari bilan bajariladi.

O'sha harakatlarni bir vaqtda ikkala qo'lning barmoqlari bilan bajariladi ("echkichalar").

Ikkala qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlaridan dumaloq yasab, ularni birlashtiriladi ("ko'zoynak").

O'ng qo'lning ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini tepaga tortib, jinjiloq va nomsiz barmoq uchlarini bosh barmoq uchlari bilan birlashtiriladi ("quyoncha").

O'sha mashqlarni chap qo'l barmoqlari bilan bajariladi.

O'sha harakatlarni bir vaqtda ikkala qo'lning barmoqlari bilan bajariladi ("quyonlar").

Ikkala qo'lni ko'tarib kaftlarni o'ziga qaratish, barmoqlarni keng ochiladi ("daraxtlar").

Ko'tarilgan ikkala qo'lning kaftlarining orqasini o'ziga qaratib yuqoriga-pastga harakatlar qilinadi ("qushlar uchyapti, qanotlari qimirlatyapti").

Bosh barmoqdan boshlab, o'ng qo'l barmoqlarini galma-galdan bukiladi.

Jinjiloqdan boshlab, barmoqlarni bukib o'sha harakatlarni bajariladi.

Oldingi ikkala mashqni chap qo'l barmoqlari bilan bajariladi.

O'ng qo'l barmoqlarini musht qilib bukib, bosh barmoqdan boshlab tekislab ochiladi.

O'sha mashqlarni jinjiloqdan boshlab barmoqlarni tekislab ochishni bajariladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga muayyan mavzular bo'yicha ertaklar, rasmlar asosida hikoya tuzish topshirig'i ham berilishi mumkin. Bundaytopshiriq ustida ishlash orqali ularda mustakillik, ijodiy faollik rivojlantiriladi. "Bizning oila", "Bahor fasli", "yoz - ugar soz", "qaldirg'ochlar uchib keldi", "qo'g'irchoq teatrida", "qish", "qor", "qorboboning sovg'asi", "qushlar bizning do'stimiz", "Mening to'ltarim", "Hayvonot bog'ida", "Ertaklar mamlakatida", "Sirkda", "qo'g'irchoqlarim -ovunchoqlarim", "Uch ayiq", "quyonlar", "qovoq polvon" va boshqa mavzularda hikoya tuzishni aniq tavsiya etish bolalarni nihoyatda qiziqtirib boriladi. Hikoya qilish bolalarning jummalarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, tovushlarni, qo'shimchalarni to'g'ri talaffuz etish, yoshiga mos darajada tasviriy vositalardan to'g'ri foydalana olishiga yordam berib boriladi.

#### **«Razvedkachilar»**

Maqsad: Bolalarni zarur tovushini so'zlarda to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish.

O'yinning borishi: Tarbiyachi bolalarga rasmlarni ko'rsatadi, bolalar rasmlarning nomlarini aytadilar. So'ngra tarbiyachi razvedkachilarni tanlaydi. Razvedkachilar xonadan chiqib turadilar. Tarbiyachi qolgan bolalar bilan rasmlarni xonaning turli burchaklariga yashirib chiqadi. Razvedkachilar kelib, rasm

yashirilgan joyni qidiradilar va topib olgan rasmlarni bolalarga ko`rsatib, uning nomini aytadilar.

Metodik ko`rsatma: Narsalarning nomini aytayotganda zarur tovushini aniq talaffuz etishlari kerak. Zarur tovushini cho`zib talaffuz etmaslik lozim.

Hozirgi davrda ota-onalar bilan pedagoglar hamkorligiga alohida e`tibor berilmoqda va bu ta`lim tarbiya ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Ota – onalar bilan ishlashda o`qituvchi – logopedlar an`anaviy va noan`anaviy usullar : anketalashtirish, maslahat – muloqat, ochiq mashg`ulotlardan keng foydalanadi. O`z navbatida ota – onalar farzandlari ishlari bilan tanishib, ulardagi muammo va yutuqlardan tegishli xulosa chiqaradilar. O`qituvchi – logoped har bir bola topshiriqlarni qanday bajarganligini ota – onalarga tushuntiradi. Individual daftarlar orqali bolalar qanday natijalarga erishgani, qaysi tovushni hosil qilolmagani, nimada qiynalishi haqida ma`lumot berib boriladi. Shu Bilan bir qatorda, ota – onalar bolalari bilan topshiriqni qayta ko`rib chiqishlari lozim.

### **“Men nimani chalayapman o`yini”**

O`yinning qisqacha mazmuni: Logoped bolalarni musiqali o`yinchoqlar bilan tanishtiradi. So`ngra bu o`yinchoqlarni parda orqasiga yashiradi. Parda (shirma) orqasida turib, bironta musiqaviy o`yinchoqni chaladi va bolalardan qaysi musiqali o`yinchoqni chalganini so`raydi.

Metodik ko`rsatma: Bolalar tinchgina o`tirib, ohangni diqqat bilan tinglashi kerak. Bir mashg`ulotda to`rt xildan ko`p musiqali o`yinchoq bo`lmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda ,tadqiqot jarayonida quyidagi natijalar olindi: nutqi rivojlanmagan bolalarda bilimidagi kamchiliklar tafakkur jarayoni va natijalariga va o`z-o`zini tashkil qilishning buzilishiga ko`proq ta`sir qiladi. Ularda atrofdagilar to`g`risida etarli hajmda ma`lumotlar bo`lmaydi, borliqdagi predmetlarning xususiyatlari va funksiyalari haqida, hodisalarning sabab-tergov aloqalarini o`rnatishda qiyinchiliklar tug`iladi. O`z-o`zini tashkil qilishning buzilishida hissiyotli-iroda va motiv doirasidagi kamchiliklar sabab bo`ladi va psixojismoniy tormozlanish kamdan-kam to`xtab qolishi va vazifaga qiziqishning yo`qligi namoyon bo`ladi. Bolalar, ko`pincha, siz taklif qilgan muammoli



vaziyatga uzoq vaqt qo‘shilmaydilar, yoki aksincha juda tez vazifani bajarishga kirishib ketadilar, lekin bunda vazifaning hamma xususiyatlarini hisobga olmasdan muammoli vaziyatni yuzaki baholashadi. Boshqalar vazifani bajarishga kirishadilar, lekin unga qiziqishlari tez yo‘qoladi, hatto vazifa to‘g‘ri bajarilayotgan bo‘lsa ham, ishni tugatmasdan ishlashdan bosh tortadilar. Bunda, nutqi rivojlanmagan bolalarda fikrlash operyasiyalarini to‘g‘ri amalga oshirish sharoiti qoidaga ko‘ra, saqlangani o‘z-o‘zini tashkil qilishni tartibga solish va bilim zahiralari kengaytirilganligi ochib ko‘rsatiladi. Talaffuzni shakllantirish ishi yakka tartibdagi (guruhli va frontal) mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Bo‘lim bo‘yicha tuzatuvchi ta‘limning vazifalari bolalarda til doirasida kuzatish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish, o‘zlashtirilgan leksik va grammatik materialni bog‘langan nutqning turli ko‘rinishlarida amaliy qo‘llash malakasini kengaytirishdan iboratdir.

Shunday qilib bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda tarbiyachi va otananing hamkorligini rivojlantirish o‘ta muhim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yangi ta‘lim to‘g‘risidagi qonun .2020y
2. Ayupova M.Yu. Logopediya. O‘zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007 y.
3. Belova N.I. Spetsialnaya doshkolnaya surdopedagogika. M. 1985 g.
4. Ermakov V.P, Yakunin G.A. Osnovoi tiflopedagogiki Moskva:Vlados 2000g.
5. Ignateva S.A. Blinkov Yu.A. Logopedicheskaya reabilitatsiya detey s otkloneniyami v razvitii. Moskva: «Vlados». 2004 g.
6. Mo‘minova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. O‘qituvchi nashriyoti. Toshkent 1993.
7. Po‘latova P.M. Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika). T.: G‘ulom”, 2005 y.
8. Raxmonova V.S. Maxsuspedagogika. G‘ulom nashriyoti. Toshkent. 2006
9. Raxmonova V.S. Defektologiya asoslari va logopediya. O‘qtuvchi nashriyoti. Toshkent 1991.

10. Sagatov A.I., Po'latova P.M., Mamedov K.X. «Oligofrenopedagogika asoslari». T.: «O'qiuвchi», 1999 y
11. Islomova, O. (2021). UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA SHAXOBCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2619>
12. Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1).
13. Islomova, O. (2022). NUTQ BUZILISHLARI PSIXOPROFILAKTİKASIDA TURLI XIL PSIXOLOGİK O'YINLARNI TASHKIL ETISH. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4821>
14. Islomova, O. (2022). NUTQ NUQSONLARINI KORREKSIYALASHDA "STEM" TIZIMIDAN FOYDALANISH. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4824>
15. Islomova, O. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR XOTIRA XUSUSIYATI VA UNING RIVOJLANISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI OMILLAR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4823>
16. Ozoda Islomova, [UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI SHAXOBCHALARDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPLEKS LOGOPEDIK TIZIMLI ISHLARNI TASHKIL ETISH](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: Том 2 № 6 (2022): [Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari](#)

17. Islomova, O. (2020). MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALAR NUTQINI ZAMONAVIY O'YINLAR ORQALI KORREKSIYALASH. *Scienceweb academic papers collection*.
18. Muzaffarova, X. (2021). AQLI ZAIFLIK TUSHUNCHASI TALQINIDAGI NAZARIY XATOLARNING SALBIY OQIBATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2)*.
19. Музаффарова, Х. Н., & Эгамназаров, М. Ю. (2017). Махсус таълимда болалар интеллекти даражасини аниқлашда психологик-педагогик эксперимент ўтказиш технологияси. *Современное образование (Узбекистан), (7)*.
20. Тангирова, Д., & Музаффарова, Х. (2014). Нарушения фонетических норм, встречающиеся в речи учащихся, и пути их исправления. *Молодой ученый, (20), 738-740*.
21. Muzaffarova, X. O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari. *Bola va Zamon jurnal. T, (2-2019)*.
22. Haqberdiyev, J. (2021). MAXSUS MAKTAB-INTERNATDA KOKLEAR IMPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2)*.
23. Muzaffarova, X. (2020). Maxsus maktab internatlarda olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning mazmuni. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
24. Muzaffarova, X. (2021). Ақли заиф болаларни ташхислаш ва уни амалга оширишга қўйиладиган талаблар. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1)*.
25. Axrorova, S. (2021). ИГРА КАК СРЕДСТВО КОРРЕКЦИИ АУТИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ТЕРАПИИ ИГРОЙ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1)*.

извлечено

от

<https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/710>

26. Malikaxon Qodirova, [МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 \(2021\): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
27. Malikaxon Qodirova, [МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 \(2021\): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari](#)
28. Malikaxon Qodirova, [O'SMIRLAR PSIXOLOGIIYASI VA O'SMIR XULQ-ATVORINING O'ZIGA HOSLIGI](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 \(2021\): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
29. Malikaxon Qodirova, [AGRESSIYANING NAZARIY ASOSLARI](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 \(2021\): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
30. Malikaxon Qodirova, [ВОСПРИЯТИЕ " Я " У ДЕТЕЙ](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 \(2020\): Journal of Pedagogy and psychology in modern education](#)
31. Malikaxon Qodirova, [ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 \(2020\): Journal of Pedagogy and psychology in modern education](#)
32. Dilfuza Qarshiboyeva, [КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 \(2021\): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari](#)
33. Dilfuza Qarshiboyeva, [IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: Том 1 № 4 \(2021\): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
34. Qarshiboyeva, D. (2021). ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ҲАҚИДАГИ БИЛИМЛАР

- УЗЛУКСИЗЛИГИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2906>
35. Toshpo'latova, N. (2021). CHET TILI FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3073>
36. Ахмедова Насиба Ачиловна, СОҒЛОМ МУҲИТ –СОҒЛОМ ОИЛА ТАЯНЧИ. <https://history.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2966/1982>
37. Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДАГИ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИ БОЛАНИНГ МУВАФФАҚИЯТГА ЭРИШИШИГА ТАЪСИРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3076>
38. Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДА ЭР-ХОТИН МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2962>
39. Imomqulova, F. (2021). ISSUES OF UPBRINGING IN UZBEK FAMILIES. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2620>
40. Imomqulova, F. (2021). ISSUES OF UPBRINGING IN UZBEK FAMILIES. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2620>
41. Mamaraimova, R. (2022). ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИНГ ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАР ЁРДАМИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ МАЗМУН МОҲИЯТИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5112>

- 42.Ra'no Mamaraimova, [КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАР КОМПЕТЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАЪЗИ ЖИҲАТЛАРИ](#), [Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 2 \(2021\): Журнал педагогика и психологии в современном образовании](#)
- 43.Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 608-613.
- 44.Эшонкулова, Х. (2022). ИҚТИДОРЛИЛИК МУАММОСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(7).  
извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5762>
- 45.Siddiqova, S. (2022). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МУСТАҚИЛ ФИКРЛОВЧИ, ИЖОДКОР ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3).
- 46.Siddiqova, S. K. (2021). INCREASE THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS COGNITION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Theoretical & Applied Science*, (2), 24-26.
- 47.Siddiqova, S. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШ, ИЖОДИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3).
- 48.Siddiqova, S. (2021). ЎҚУВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).
- 49.Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАЪРИФАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ВЕРТУАЛ СТЕНДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3).  
извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5620>

50. Soibnazarova, M. (2022). YOSHLAR TARBIYASIDA ABDURAHMON JOMIYNNIG ASARLARIDAN FOYDALANISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5634>
51. Sanakulova, Z. A., & Soibnazarova, M. N. (2017). Modular training as a pedagogical technology. Pedagogicheskoe masterstvo: X Mezhdunarodnaya nauchnaya konferentsiya, Moskva, iyun'2017
52. Soibnazarova, M. (2022). ЁШ АВЛЮДНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5573>
53. Санакулова, З. А., & Соибназарова, М. Н. (2017). Модульное обучение как педагогическая технология. In Педагогическое мастерство (pp. 20-22).
54. Санакулова, З. А., Соибназарова, М. Н., Бойтураева, Н. И., & Юлдашев, Ш. Э. (2016). Психологические условия формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся. Молодой ученый, (8), 1022-1024.
55. Axmedova, S. (2022). МАКТАБЛАРДА О‘ҚИТИШ ТИЗИМИНИНГ ТА’ЛИМ ОЛУВЧИЛАР YOSHI BILAN BOG‘LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5879>